


## XI. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TA'RIFI

So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo'llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo'g'ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag'batlantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilyapti.


### Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni

*(1-yanvar holatiga ko'ra, ming birlikda)*



**Korxonalar va tashkilotlar  
faoliyatining umumiy tavsifi**

**Korxonalar va tashkilotlar soni**  
(2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



**Yuridik shaxs:**


Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

**Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalar soni**

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2026- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



**Korxonalar va tashkilotlar  
faoliyatining umumiy tavsifi**





**Mas'uliyati cheklangan jamiyati** – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi.

**Xususiy korxonalar** – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e'tirof etiladi. Xususiy korxonalar tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

### Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1-yanvar holatiga ko'ra)




2026- yil 1- yanvar holatiga faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 28 831 tani tashkil etdi, ulardan 25 094 tasi tadbirkorlik subyektlari.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umuniy sondagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 28,6 foiz, sanoat – 11,2 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 11,5 foiz, qurilish – 7,4 foiz, hududiy kesimda eng ko'pi Buxoro shahrida – 27,2 foiz, tumanlardan G'ijduvon – 10,2 foiz, Romitan – 9,0 foiz, Jondor – 8,1 foiz va Buxoroda – 7,6 foiz faoliyat ko'rsatmoqda.

## Korxonalar va tashkilotlar faoliyatining umumiy tavsifi

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni**  
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo'lmoqda. 2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 4 410 ta bo'lib, shundan:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar 4 401 ta;
- yirik korxonalar 9 ta.

Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2026- yil 1- yanvar holatiga 25 094 taga yetdi. Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 32,9 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 13,1 foiz, sanoat – 12,8 foiz, tashish va saqlash – 9,9 foiz, qurilish – 8,4 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 8,2 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 3,0 foiz, axborot va aloqa – 1,3 foiz, hamda boshqa turlari – 10,4 foiz.

**Korxonalar va tashkilotlar  
faoliyatining umumiy tavsifi**

**Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni**  
(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




**Aksiyadorlik jamiyati:**

Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat - aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.


Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha, o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida, jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni  
(1-yanvar holatiga, ming birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni  
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-yanvar holatiga, birlikda)



## Korxonalar va tashkilotlar faoliyatining umumiy tavsifi

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning  
tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi**  
(2026-yil 1-yanvar holatiga, umumiy sonidagi ulushi)




2026-yilning 1-yanvar holatiga 4 781 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar 3 885 ta, xususiy korxonalar 236 ta, oilaviy korxonalar 192 ta va boshqalar 468 tani tashkil etdi.

O'zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qishloq xo'jaligini rivojlantirishning chuqur o'ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri mevasabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to'liq ta'minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo'nalishlardan biriga aylandi.


**Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanayotgan  
korxonalar va tashkilotlar tarkibi**  
(2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra)



**Korxonalar va tashkilotlar  
faoliyatining umumiy tavsifi**

### Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




2026- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, sanoat korxonalari va tashkilotlari soni 3 223 tani tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 103,6 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat korxonalari va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida 102,7 % ga (jami sanoatdagi ulushi 92,5 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 115,6 % ga (jami sanoatdagi ulushi 3,4 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 150,0 % ga (jami sanoatdagi ulushi 0,8 %) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishning 113,0 % ga (jami sanoatdagi ulushi 3,3 %) o'sishidir.

### Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



2026- yil 1-yanvar holatiga ko'ra qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 2 134 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 106,0 foizni tashkil etdi. Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bino va inshootlar qurishda o'tgan yilga nisbatan 102,5 foizga (jami qurilishdagi ulushi 47,8 foiz), fuqarolik ob'ektlarini qurish 115,6 foizga (jami qurilishdagi ulushi 26,3 foiz), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining 103,8 foizga (jami qurilishdagi ulushi 25,9 foiz) tashkil etdi.

## Korxonalar va tashkilotlar faoliyatining umumiy tavsifi


### **Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni**

*(2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)*

2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra savdo sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 8 260 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 109,1 foizni tashkil etdi. Jami savdo korxonalar va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan 107,0 foizga (jami savdodagi ulushi 59,7 foiz), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan 114,9 foizga (jami savdodagi ulushi 29,7 foiz), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlashning o'tgan yilga nisbatan 105,7 foizga (jami savdodagi ulushi 10,6 foiz) tashkil etdi.

### **Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni**

*(2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)*




### **Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni**

*(2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)*

2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2 048 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 110,5 % ga tashkil etdi. Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar 110,5 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 80,9 %), yashash bo'yicha xizmatlarning 110,4 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 19,1 %) tashkil etdi.

## **Korxonalar va tashkilotlar faoliyatining umumiy tavsifi**


**Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan  
korxonalar va tashkilotlar soni**  
(1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



2026- yil 1-yanvar holatiga ko'ra axborot va aloqa sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 342 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 112,1 foizni tashkil qildi. Jami axborot va aloqa sohasida korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili kino video-filmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish bo'yicha xizmatlar o'tgan yilga nisbatan 125,0 foizga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 2,9 foiz), axborot sohasidagi xizmatlar o'tgan yilga nisbatan 109,3 foizga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 13,7 foiz), nashriyotchilik xizmatlari o'tgan yilga nisbatan 109,3 foizga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 17,5 foiz), dasturlar tuzish va teleradio eshittirishlar bo'yicha xizmatlar 150,0 foizga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 0,9 foiz), kompyuter dasturlashtirish xizmatlari o'tgan yilga nisbatan 112,1 foizga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 38,0 foiz), telekommunikatsiya xizmatlarining 113,4 foizga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 27,0 foiz) o'sgan.

**Korxonalar va tashkilotlar  
faoliyatining umumiy tavsifi**

**Oilaviy korxonalar soni**  
(1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2026-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra 3 411 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 799 taga yoki 19,0 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2 346 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 10 taga yoki 0,4 % ga ko'payganligini ko'rish mumkin.


2026-yilning 1-yanvar holatiga yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 192 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 346 taga yoki 64,3 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.

**Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni**  
(1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy - huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 27 597 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 1 453 taga yoki 5,0 foizga kamayganligini ko'rsatmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 20 462 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 2 470 ga yoki 13,7 foizga ko'payganligini ko'rish mumkin.

2025-yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 3 885 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 319 taga yoki 7,6 foizga kamaygan.




**Korxonalar va tashkilotlar  
faoliyatining umumiy tavsifi**

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar – korxonaning ustav jamg‘armasida norezidentlar, chet el yuridik shaxslari (chet el firmalarining filial va bo‘linmalari), chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar mulki ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi.

Mamlakatimizda xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan jadal ishlar natijasida, chet el investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning soni sezilarli darajada oshib borayotganligini ko‘rishimiz mumkin.


**Buxoro viloyatidagi xorijiy kapital ishtirokidagi  
korxonalar va tashkilotlar soni**  
(2026- yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)



Ro‘yxatdan o‘tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2026- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra 521 tani tashkil etib, ulardan 372 tasi yoki 71,4 % faoliyat ko‘rsatmoqda. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 37 taga yoki 6,6 % ga oshganligini ko‘rish mumkin.

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatimizda 97 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.


**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni**  
(iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha 1-yanvar holatiga, birlikda)



**Korxonalar va tashkilotlar  
faoliyatining umumiy tavsifi**

**Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni**

*(2026- yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)*



**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni**

*(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)*


	2022- y.	2023- y.	2024-y.	2025-y.	2026-y.
<b>Jami</b>	<b>355</b>	<b>400</b>	<b>350</b>	<b>315</b>	<b>372</b>
<i>shu jumladan:</i>					
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	32	33	21	19	23
sanoat	133	149	120	97	100
qurilish	33	31	32	22	21
savdo	88	111	112	113	149
tashish va saqlash	6	12	17	10	11
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	25	27	20	20	22
axborot va aloqa	5	6	4	2	2
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	7	7	5	3	5
boshqa turlar	26	24	19	29	39

**Korxonalar va tashkilotlar faoliyatining umumiy tavsifi**

**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi  
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**  
(2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

	<i>Jami</i>	<i>shundan:</i>	
		<i>qo'shma korxonalar</i>	<i>xorijiy korxonalar</i>
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>372</b>	<b>127</b>	<b>245</b>
Buxoro shahri	181	54	127
Kogon shahri	12	7	5
<i>tumanlar</i>			
Olot	20	2	18
Buxoro	36	17	19
Vobkent	10	5	5
G'ijduvon	15	4	11
Kogon	28	9	19
Qorako'l	19	5	14
Qorovulbozor	6	2	4
Peshku	10	4	6
Romitan	16	6	10
Jondor	9	6	3
Shofirkon	10	6	4


**Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarinig qo‘shma  
korxonalar va xorijiy korxonalariga taqsimlanishi**  
(2026-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, jamiga nisbatan ulushi % da)



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Buxoro shahrida 181 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 48,7 %), Kogon tumani 28 ta (7,5 %), Olot tumani 20 ta (5,4 %), Kogon shahar 12 ta (3,2 %), Buxoro tumani 36 ta (9,7 %), hamda Romitan tumanlarida 16 tani (4,3 %) tashkil etadi.


**Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimida soni**

*(2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)*



**Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni**

*(2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)*



2026- yilning 1-yanvar holatiga ko'ra yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Buxoro shahri (18,2 %), G'ijduvon (16,1 %), Buxoro (9,9 %), Romitan (1,6 %), Peshku (3,6 %), Kogon (3,1 %), Jondor (2,6 %), Vobkent (7,8 %), Shofirkon (8,9 %), Qorako'l (9,9 %), Olot (9,9 %), Qorovulbozor (1,6 %) tumanlari va Kogon shahar (6,8 %) ulushiga tegishli.

**Korxonalar va tashkilotlar  
faoliyatining umumiy tavsifi**

### Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – axborot ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reyestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashkari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Faoliyat ko'rsatmayotgan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan, moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan yoki belgilangan muddatda ustav jamg'armalarini shakllantirmagan hamda tugatish jarayonida bo'lganligi haqida ma'lumotlar mavjud bo'lgan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan**- ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reyestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Faoliyati tugatilgan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan yuridik shaxslarning davlat reyestriga yuridik shaxsni tugatilganligi to'g'risidagi yozuv kiritilgandan so'ng bu haqda davlat statistika organlariga ma'lumot taqdim etilgan yuridik shaxslar.

**Yuridik shaxslarning faollik darajasi** – ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

**Yuridik shaxslarning yangi tashkil etilganlik darajasi** – ma'lum bir davr oralig'ida tashkil etilgan yuridik shaxslarning jami faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-sonli qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan.

**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar** – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.